

Qizi borning qadri bor

Muallif: Abdumo‘minova Dilafruz Alibek qizi

Oqdaryo tuman hokimligi, Oila va xotin-qizlar bo‘limi Yangiqo‘rg‘on–

Yangiqishloq MFY xotin-qizlar faoli

Oqdaryo tumani maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi tasarrufidagi 3-sonli

Davlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti psixologi

Annotatsiya:

Maqolada qiz farzandni qadrlash, uning oiladagi va jamiyatdagi o‘rni, tarbiyaviy ahamiyati hamda ijtimoiy e‘tibor masalalari yoritilgan. Muallif qiz bola tarbiyasining jamiyat kelajagiga ta’siri, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash zaruriyatini asoslab beradi.

Kalit so‘zlar:qiz bola, oila, tarbiya, qadriyat, mehr, ma’naviyat, jamiyat, onalik, ayollar huquqi, psixologik yordam, ta‘lim.

Qiz bola – oilaning bezagi, jamiyatning ma’naviy ko‘zgusi, millatning kelajagini tarbiyalovchi mo‘tabar zotdir. “Qizi borning qadri bor” degan xalqimiz hikmati bejiz aytilmagan. Bu hikmatning zahirida chuqur hayotiy ma’no, milliy qadriyatlar, insoniylik va mehr-muruvvat mujassam. Qiz bolasini qadrlash, unga e‘tiborli bo‘lish, uni hurmat bilan tarbiyalash – bu nafaqat oila, balki butun jamiyatning burchidir. Qiz bola kelajakda ona bo‘ladi, oila tayanchiga aylanadi, jamiyatda insonparvarlik, mehr-shafqat, sadoqat kabi yuksak fazilatlarni yoyadi. Shu sababli, qiz farzandni tarbiyalashda ota-onaning mas’uliyati ikki baravar ortadi. Chunki qizning tarbiyasi – kelajak avlodning tarbiyasidir. Bugungi globallashuv davrida qiz bolalarning dunyoqarashi, bilim darajasi, axloqiy qadriyatlari katta ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ular kelajakda nafaqat oila boshqaruvchisiga, balki farzandlarining birinchi ustoziga aylanadi. Qizning qanday tarbiya olishi, qanday fikrlashi, qanday orzular bilan ulg‘ayishi – butun millatning ma’naviy qiyofasini belgilaydi. Shuning uchun davlat siyosatida ham ayollar, ayniqsa qiz bolalar ta‘lim-tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning “Yangi O‘zbekiston – bu avvalo xotin-qizlarni e‘zozlaydigan, ularning or-nomusini, sha’nini himoya qiladigan jamiyat” degan so‘zlari bejiz emas. So‘nggi yillarda mamlakatimizda qizlarning ta‘lim olishiga, kasb o‘rganishiga, o‘z iqtidorini namoyon etishiga keng imkoniyatlar yaratildi. Har bir qiz o‘z orzulariga erishish uchun har tomonlama sharoitga ega bo‘layotgani – bu millatning taraqqiyoti, jamiyatning madaniy yuksalishidir. Qiz farzandni qadrlash – bu nafaqat

unga e'tibor ko'rsatish, balki uni to'g'ri tarbiyalash, mehr bilan yo'naltirish, hayotga tayyorlash demakdir.

Chunki bugun e'tibor berilgan qiz, ertaga onalik mas'uliyatini his qilgan holda, farzandlariga to'g'ri yo'l ko'rsatadi. Shuning uchun qiz farzandni tarbiyalashda ota-onaning mehr-muhabbati bilan bir qatorda, mahalla, maktab, jamoatchilikning ham roli beqiyosdir. Qiz bola ulg'ayish jarayonida eng avvalo onasiga qaraydi, uning xulq-atvorini, muomalasini, odobini o'rnak oladi. Shu bois onaning o'rni va namunasini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Oilada mehr va samimiyat hukm sursa, qiz bola ham o'zini qadrlangan, e'tirof etilgan shaxs sifatida his qiladi. Qiz bolani qadrlash – bu faqat moddiy sharoit bilan emas, balki ruhiy, ma'naviy e'tibor bilan belgilanadi. Uni eshitish, fikrini hurmat qilish, orzularini qo'llab-quvvatlash – bu eng katta qadrlashdir. Har bir ota-ona bilishi kerakki, qizning qalbida ishonch va mehr uyg'otilsa, u hech qachon yomon yo'lga kirmaydi. Biroq bugungi kunda ayrim oilalarda qiz bolalarning fikriga e'tibor berilmasligi, ularning huquqlarini kamsitish holatlari uchrab turibdi. Bu esa kelajakda qiz bolaning ruhiyatiga, o'ziga ishonchiga, ijtimoiy faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois qizlarning huquqiy, ma'naviy va psixologik tayyorgarligini kuchaytirish dolzarb masala hisoblanadi. Maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida “Qiz bola – millat ko'zgusi” mavzusida suhbatlar, treninglar, uchrashuvlar o'tkazilishi ularning hayotga ijobiy qarashini mustahkamlaydi. Har bir qiz o'zini qadrlasa, o'zini himoya qila olsa, u kuchli shaxsga aylanadi. Kuchli ayollar esa kuchli jamiyatni yaratadi.

Qiz bola shunchaki oila a'zosi emas – u oila mehrining markazi, tinchlik va osoyishtalik ramzidir. “Qizi borning qadri bor” degan naqlning zamirida shuningdek, insoniylik, bag'rikenglik, rahm-shafqat, sabr-toqat kabi yuksak qadriyatlar mujassam. Qiz bolasini asrash, unga e'tibor bilan qarash – bu millatning kelajagini asrashdir. Qizni himoya qilish – bu kelajak onani, kelajak farzandni, kelajak avlodni himoya qilishdir. Shu bois har bir mahallada “Qizlar klubi”, “Opa-singillar maktabi”, “Qizlar maslahat uyi” kabi tashabbuslar yo'lga qo'yilishi lozim.

Bunday tashabbuslar orqali qizlar o'z muammolarini ochiq aytish, psixologik yordam olish, hayotga to'g'ri yo'naltirilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, qizlarga zamonaviy kasb-hunarlarini o'rgatish, ularni ijtimoiy faol hayotga tayyorlash, rahbarlik lavozimlariga tayyorlash ham juda muhimdir. Chunki zamonaviy ayol nafaqat oila bekasi, balki ijtimoiy hayotda faol ishtirokchi, tadbirkor, olim, o'qituvchi, rahbar bo'lishi mumkin. Qizlarga beriladigan ishonch ularning imkoniyatlarini ochadi, jamiyatda ularni hurmat qilinishini ta'minlaydi. Qiz bolaning qadrini bilgan oila hech qachon tanazzulga uchramaydi. Chunki qizning borligi o'sha xonadonning fayzi, ornomusi va baxtidir. Shunday ekan, har bir ota-ona qiz farzandini Allohning ne'mati

sifatida qabul qilishi, uni mehr va tarbiya bilan o‘stirishi kerak. Jamiyatda qizlarning o‘rni yuksalgan sari, zo‘ravonlik, kamsitish, huquqbuzarlik holatlari kamayadi. Chunki qadrlangan qiz o‘zini jamiyatda foydali inson sifatida his qiladi. “Qizi borning qadri bor” degan hikmatni hayotga tadbiiq etish – bu har birimizning ijtimoiy burchimizdir. Agar biz har bir qizni bilimli, odobli, ishonchli va mehrli qilib tarbiyalay olsak, kelajagimiz yanada yorqin bo‘ladi. Qizlar orzularining parvozi – jamiyat yuksalishining timsolidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova S. “Qiz bola tarbiyasi – millat kelajagi” – Toshkent, 2022.
2. Shavkatova D. “Ayollar va jamiyat: yangi qarashlar” – Samarqand, 2023.
3. www.ziyonet.uz
4. www.women.uz
5. “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi axborot byulleteni”, Toshkent, 2024.



GLOBAL SCHOLARS
SCIENTIFIC PUBLISHING